



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмурадович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ... 289 <i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	289
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish 293 <i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	293
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari..... 296 <i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	296
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit 300 <i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	300
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari 303 <i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	303
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции 308 <i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	308
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты..... 312 <i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	312
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе 317 <i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	317
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов 319 <i>Рахимходжаева В. С.</i>	319
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета 325 <i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	325

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA SHAXSLILIK SIFATLARINING KASBIY RIVOJLANISHDAGI PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Dusmetova Maksuda Matnazarovna

UrDPI Boshlang'ich talim fakulteti,
Boshlang'ich talim nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy shakllanishida shaxslilik sifatlarining tutgan o'rni zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi empatiya, emotsional barqarorlik, kommunikativlik, refleksivlik, tolerantlik, mas'uliyatlilik va pedagogik yo'nalganlik kabi sifatning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi, pedagogik kompetentligining shakllanishi hamda ularning kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Maqolada pedagogik oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, shaxslilik sifatleri, kasbiy rivojlanish, pedagogik kompetentlik, psixologik tayyorgarlik, empatiya, emotsional barqarorlik, refleksiya, pedagogik yo'nalganlik, kommunikativlik, tolerantlik, kasbiy identifikatsiya, pedagogik mahorat, o'z-o'zini rivojlantirish.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of personality traits in the professional formation of future primary school teachers based on modern psychological approaches. The essence and significance of such qualities as empathy, emotional stability, communicative competence, reflexivity, tolerance, responsibility, and pedagogical orientation, which determine the effectiveness of pedagogical activity, are elucidated. Furthermore, the article analyzes the psychological readiness of future teachers for professional activity, the formation of their pedagogical competence, as well as internal and external factors influencing their professional development. The study also substantiates the psychological and pedagogical opportunities for developing students' personal and professional qualities within the system of higher pedagogical education and highlights the importance of modern educational technologies in this process.

Key words: future teacher, primary education, personality traits, professional development, pedagogical competence, psychological readiness, empathy, emotional stability, reflection, pedagogical orientation, communicative competence, tolerance, professional identity, pedagogical mastery, self-development.

Аннотация: В данной статье на основе современных психологических подходов проведён научно-теоретический анализ роли личностных качеств в профессиональном становлении будущих учителей начальных классов. Раскрыты сущность и значение таких качеств, определяющих эффективность педагогической деятельности, как эмпатия, эмоциональная устойчивость, коммуникативность, рефлексивность, толерантность, ответственность и педагогическая направленность. Кроме того, проанализированы психологическая готовность будущих педагогов к профессиональной деятельности, формирование их педагогической компетентности, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на профессиональное развитие. В статье также обоснованы психолого-педагогические возможности развития личностно-профессиональных качеств студентов в системе высшего педагогического образования и значение современных образовательных технологий в данном процессе.

Ключевые слова: будущий учитель, начальное образование, личностные качества, профессиональное развитие, педагогическая компетентность, психологическая готовность, эмпатия, эмоциональная устойчивость, рефлексия, педагогическая направленность, коммуникативность, толерантность, профессиональная идентичность, педагогическое мастерство, саморазвитие.

KIRISH

Bugungi kunda mehnat faoliyatida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi muammosi bo'yicha bir qator masalalar yuzaga kelmoqda. Mazkur masaladagi muammo shundaki, oliy ta'lim tizimida kasbga predmetli tayyorgarlik mavjud bo'lishiga qaramasdan, mehnat faoliyatida kasbga moslashish, ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish va malakani shakllantirish yosh xodim oldida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.



Mazkur qiyinchiliklardan biri bu kasbga psixologik tayyorgarlikdir. Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlik yosh mutaxassisni muvaffaqiyatli kasbiy shakllantirishda sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalar, shaxsiy tavsiflar majmuasini o'z ichiga olgan, shuningdek, kasbiy qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishga qaratilgan yaxlit psixik tuzilma hisoblanadi [9].

Fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u o'quvchini bilimga qiziqtirishi, tarbiyalashi hamda psixologik muammolarni sezishga qodir inson bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi psixologik barqaror, emotsional chidamli va rivojlangan shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun psixologik tayyorgarlik, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy tavsiflarning shakllangan va rivojlangan bo'lishi muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy sifatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ulardagi muhim sifatlarini ajratib olish jarayonini talab qiladi. Shaxsiy sifatlar pedagog faoliyatining markazida turuvchi eng muhim determinatlardan biri hisoblanib, "shaxs (uning qadriyatli mo'ljallari, ideal-lari, mazmuni) pedagogik muloqot va faoliyatning mohiyati"ni tashkil qilishi ta'kidlanadi. Demak, boshlang'ich sinfda har bir kun yangi psixologik holatlar bilan to'la, chunki bola yig'lashi, gapirmasligi, o'zini yakallashi yoki haddan ortiq shovqin ko'tarishi mumkin. Psixologik tayyorgarligi etarli bo'lmagan o'qituvchi bunday vaziyatlarda qiynaladi, hissiy charchash yuzaga keladi.

A. K. Markovaning fikricha, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy sifatlar boshqa kasb egalari-ga qara-ganda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan, "pedagogik fikrlash", "pedagogik empatiya", "boshqalarga o'xshamaslik", "sabrlik", "ijodiy yo'nalganlik", "kasbiy vatanparvarlik va sadoqat", "o'zini-o'zi rivojlantirishning kasbiy muhim sifat-lari" hamda "kasbiy xaziralarning yashovchanlik darajasi" o'qituvchining shaxsiy-kasbiy ahamiyatli integral xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi. Bular pedagogik yo'nalganlik, pedagogik kompetentlik, emotsional egiluvchanlik hamda ma'naviy-axloqiy tavsiflarni aks ettiruvchi xususiy shaxslilik sifatlaridir. Nazarimizda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining muvaffaqiyatli faoliyati uchun psixologik tayyorgarlik bilan birga, kasbiy qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish, xolis baho bera olish va o'zini rivojlantirishga tayyorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

N. V. Kuzmina va N. E. Shchurkovalarning ta'kidlashicha, o'qituvchi kasbi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bunda ustozning shaxsiy yo'nalganligi, kasbga nisbatan hissiy va qadriyatli munosabati namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagogning kasbiy faoliyatga shaxsiy tayyorgarligining mazmunini o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifat-lari - intellektual, emotsional hamda axloqiy-etik qadriyatlari majmuasi orqali belgilash mumkinligi qayd etiladi. Fikrimizcha, o'qituvchining shaxsiy sifat-lari uning intellekti, his-tuyg'usi, axloqiy pozitsiyasi va qadriyatlar tizimi bilan aniqlanadi. Bu yondashuv pedagog shaxsining yaxlit, murakkab va ko'p qirrali tabiatini ko'rsatadi.

Ye. V. Bondarevskaya, A. A. Verbitskiy, N. V. Kuzmina, L. M. Mitina, V. A. Slastenin va boshqalarning fikricha, pedagoglarni tayyorlovchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy modernizatsiya yondashuvidan kelib chiqib, shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonida mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida inson shaxsi jihat-larining ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda o'qituvchining nazariy tayyorgarligi etarli bo'lmasa, uning kimligi, qanday fikrlashi, nimaga ishonishi va qanday qadriyatlarni tutishi ta'lim samaradorligini belgi-lashi mumkin. Bu ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dolzarb bo'lib, ular bolaga nafaqat dars, balki insoniylik, muomala madaniyati va hayotiy munosabatlarni ham o'rgatadi.

N. E. Shchurkovaning izlanishlarida bugungi kunda bo'lg'usi pedagoglarda kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda shaxsiy sifat-lar hamda tarbiyaviy xususiyatlarning rivojlanganligi oldingi davrlarga nisbatan pastroq ekani qayd etilgan. Nazarimizda, fan-texnika taraqqiyoti, gadjetlarga bog'lanib qolish holati o'quvchilar ta'lim-tar-biyasiga ham sezilarli ta'sir qilmoqda va bu ta'sir ularning xulq-atvorida hamda ta'limga munosabatida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish o'qituvchidan maxsus shaxsiy sifat-lar majmuasining rivojlangan bo'lishini talab qiladi.

Bugungi kunda bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini turli jihatlardan takomil-lashtirishga ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Oliy ta'lim tizimida mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar shaxslilik sifat-larini tadqiq qilish ularning kelgusidagi mehnat faoliyatida muhim natijalarga erishishini ta'min-laydi. Jumladan, T. B. Rudenko bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik-uslubiy kompetentligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyat-larini, Ye. A. Markishevskaya esa bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchi-larining pedagogik faoliyatda metodik-didaktik tayyorgarligi rivojlanishining shaxsiy mo'ljalga qaratilgan jara-yonini psixologik jihatdan tahlil qilgan. Shunday ekan, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual tayyorgarligi ularning shaxsiy sifat-larida ham namoyon bo'lib, bunda o'qituvchining bilimlilik darajasi, fikrlash madaniyati, tahlil qilish va muammoni hal qilish qobiliyati aks etadi.

M. N. Nikolayevaning tadqiqotlarida bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy va shaxsiy sifat-larning

rivojlanishida oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Boshqa tadqiqotchilar ishlarida esa boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirish va uning professionalashuvining turli bosqichlarida shakllangan stereotiplarga sabab bo'luvchi omillar o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilgan. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining emotsional tayyorgarligi jihatidan o'z hissiyotlarini boshqara bilish, boshqalarning hissiyotlarini anglash va ularga mos munosabatda bo'lish bilan birga, har bir bolaning holatini sezish, sabrli, mehribon, quvnoq bo'lish hamda stressli vaziyatlarda o'zini tutib, bolaga ruhiy tayanch bo'la olish talab qilinadi.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy va shaxsiy sifatlar ularning ijtimoiy faol pozitsiyasiga ham ta'sir ko'rsatib, guruhiy dinamik jarayonlarda liderlik, muloqotchanlik va boshqa guruhlar bilan o'zaro ta'sirlashuv jarayonlarida namoyon bo'lishi alohida predmet sifatida tadqiq qilingan^[4]. Fikrimizcha, pedagogning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi uning shaxsiy sifatlariga ko'ra qanday inson bo'lishiga ham bog'liq bo'lib, u intellektual salohiyat, emotsional etuklik, metodik tayyorgarlik bilan birga axloqiy va etuk qadriyatlarga ham ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun bu uyg'unlik kasbiy etuklik hisoblanib, bola uchun insoniylik namunasidir.

Pedagogik ta'lim uchun doimiy ravishda bo'lg'usi o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarigina emas, balki o'z o'quvchilarining shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan shaxsiy sifatlar ham talab qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lg'usi pedagoglarni kasbga tayyorlash masalasiga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, pedagogik profilni tanlagan talabalarda ko'pincha tanlagan kasbi bilan bog'liq muammolar vujudga keladi. Bunday muammolar shundan iboratki, tanlagan kasbida kelajakda o'zini ko'ra olmaslik, o'quvchilar bilan ishlashda o'ziga ishonmaslik, bolalarni qabul qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar va boshqa omillar natijasida shaxs psixologik tizimida o'zgarishlar yuz beradi hamda kasbiy muhim sifatlarining rivojlanishida muammolar paydo bo'ladi. Nazarimizda, pedagogik fakultetlarda ta'lim olayotgan talabalarda kelgusidagi kasbiy o'ziga ishonch ulardagi refleksivlik, o'z-o'ziga ishonch kabi sifatlarining rivojlanishi ta'sirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham kasbga tayyorlash davrida ularda mazkur sifatlar rivojlanishi uchun zarur pedagogik ta'minotga alohida e'tibor qaratish zarur.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida kurslar mezonida ham ayrim kasbiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o'quv-kasbiy va kasbiy faoliyatda o'zgaradigan hamda o'zgarmaydigan shaxsiy sifatlar ajratilib, mazkur jarayonlarning shaxsning individual-tipologik, ijtimoiy va boshqa omillari bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan^[3]. Demak, kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikning o'qituvchiga ta'siri va ichki salbiy holatlar sababli turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun muhim ogohlantiruvchi signal bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy o'zini anglashda qiynalsa, bu uning kelajakdagi faoliyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbi ko'p sabr, mehr va sadoqat talab qilgani uchun ham muvaffaqiyatlidir. Agar pedagog bu kasbda o'z o'rnini ko'ra olmasa, darsga befarqlik, shaxsiy o'sishga qiziqmaslik hamda bolalar bilan aloqa o'rnatishda sovuqlik yuzaga kelishi mumkin.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning bevosita maqsadli muloqotidan iborat bo'lib, bunda har ikki tomondan ham o'zaro ta'sirlashuv natijasida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'rinda ta'lim jarayonining rivojlanishida talaba shaxsining ham o'ziga xos roli mavjud bo'lib, Schniederjans M. J. va Ye. V. Kimlarning tadqiqotlarida masofaviy ta'lim shaklida tashkil qilingan kurslarni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning shaxsiyati asosiy ta'sir qiluvchi omil ekanligi tahlil qilingan. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati uchun ichki ruhiy tayyorgarlik, ijobiy kasbiy identifikatsiya, ya'ni o'zini shu kasbda tasavvur qila olish, bolalarga mehr bilan qarash va o'ziga bo'lgan ishonch muhim shaxsiy poydevor hisoblanadi. Agar bu omillar shakllanmagan bo'lsa, o'qituvchi nafaqat kasbiy jihatdan, balki psixologik sog'lomlik nuqtai nazaridan ham xavf ostida qolishi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar va ularning o'qituvchi imidjiga ta'sirini o'rganish maqsadida tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, unda qirq nafar o'qituvchi ishtirok etgan. O'qituvchilardan shaxsiy sifatlarini ularning ahamiyat darajasiga qarab kamayish tartibida baholash so'ralgan.

Baholash quyidagi uchta komponent bo'yicha amalga oshirilgan:

- ichki (shaxsiy) komponent: muloqotga ochiqlik, adolatlilik, mehribonlik, talabchanlik, hazil tuyg'usi, o'zaro tushunish, muvozanat, bolalarga muhabbat, o'zini tuta bilish;
- jarayon (faoliyat) komponenti: o'quv materialini aniq tushuntirish qobiliyati, mashqlarni mustaqil ko'rsatish qobiliyati, fanga oid bilim, o'quv jarayonini vizual va qiziqarli tarzda tashkil etish;
- tashqi ko'rinish komponenti: kiyim-bosh, soch turmagi, yosh, yuz qiyofasi, makiyaj, ovoz, jozibadorlik.



Shunday qilib, o'qituvchining o'quvchilar bilan iliq, hurmatli va ochiq muloqot qurishi, har bir o'quvchining shaxsiga hurmat bilan yondashuvi, konfliktlardan konstruktiv chiqishi uning ijobiy obrazini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik faoliyatdagi to'siqlarni aniqlash maqsadida tahlillar o'tkazildi va o'qituvchining kasbiy mahoratiga doir jihatlar metodikalar orqali aniqlangan ^{[2], [5], [6], [7], [8]}. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining namoyon bo'lishida muhim pedagogik va psixologik omillar ta'sir ko'rsatib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir etadi. O'qituvchining ijobiy imidji uning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy malakasi, kommunikativ madaniyati va ijtimoiy rolini qanday bajarishiga bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi.

O. I. Alimboyeva tomonidan olib borilgan "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-axborot kompetentligi rivojlanishiga o'quv motivlari, tafakkur va kognitiv uslubning ta'siri, shuningdek, uning shaxs individual xususiyatlariga bog'liqligi hamda mazkur kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqilib, samaradorligi aniqlangan ^[1].

S. R. Toshboyeva tomonidan "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari" mavzusida olib borilgan tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil etilgan, oliy ta'lim muassasalarida amaliyotda ishtirok etayotgan talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari hamda texnologiyalari takomillashtirilgan, malakaviy amaliyot jarayonida talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan. Lekin mazkur tadqiqotda bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy sifatleri etarlicha o'rganilmagan.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifasi sifatida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim va tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga yo'naltirish masalasi turibdi. Bizning fikrimizcha, ta'limni insonparvarlashtirish, individuallashtirish va differensiallashtirish talaba shaxsining kasbiy sifatlarini rivojlantirishga olib keladi. Aynan talaba shaxsi orqali kelgusida maktab ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxs sifatida rivojlanishi, ta'limga adekvat moslashuvi va o'quv dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniyati kengayadi.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi o'quv faoliyatida nafaqat nazariy bilimlar hamda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida kasbga xos ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni, balki talabalarda pedagog shaxsining muhim kasbiy sifatlarini – ishonch, e'tiqod, ta'lim muassasasida ishlashga pedagogik yo'nalganlik, ustanovka, qiziqish, mas'uliyat, bolani his qilish va tolerantlik (bag'rikenglik) kabi shaxsiy sifatleri shakllantirishni ham taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida shaxslilik sifatleri muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogdan nafaqat nazariy bilim va metodik tayyorgarlik, balki emotsional barqarorlik, empatiya, kommunikativlik, ijodkorlik va refleksivlik kabi sifatlarining rivojlangan bo'lishi ham talab etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini ta'lim samaradorligi, o'quvchilarning ruhiy holati va motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikning etarli darajada shakllanmaganligi pedagoglarda hissiy zo'riqish, kasbiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va kommunikativ muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvlarni qo'llash zarur hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotlar pedagogning kasbiy muvaffaqiyati uning intellektual salohiyati bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, bolalarga bo'lgan munosabati, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va kasbiy identifikatsiyasi bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarini rivojlantirish ularning professional etukligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimboyeva O.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Avtoref. psixol.f.b.f.d PhD. Toshkent 2024 y. 35 b
2. Антипова А.М. Технология формирования имиджа учителя [Электронный ресурс]. - Фестиваль педагогических идей // Режим доступа: <http://festival.1september.ru/articles/419846/>
3. Ашмаров И. А. Влияние личностных качеств студентов в процессе обучения на результативность процесса профессионального становления и развития // Профессиональная ориентация. 2014. № 1. С. 13-31

4. Булуева Ш. И., Кучмезов Р. А., Озиева Л. С. К вопросу о профессионально-личностных качествах студентов // Мирнауки, культуры, образования. 2020. № 3 (82). С. 238-240. DOI: 10.24411/1991-5497-2020-00527
5. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Леженина С.В. Развитие мотивационного компонента спортивной культуры студентов в процессе спортивной деятельности // Теория и практика физической культуры. - 2019. - № 5. - С. 9
6. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Игошин В.Ю. Альтернативные подходы к формированию спортивной культуры личности на примере внедрения сингапурской системы обучения на уроках физической культуры в Республике Татарстан // Проблемы современного педагогического образования. - 2018. - № 59-3. - С. 133-136
7. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Русакова С.С. Экспериментальное исследование уровня развития информационного компонента спортивной культуры студентов в процессе учебно-познавательной физкультурно-спортивной деятельности // Современные проблемы науки и образования. - 2016. - № 4.-С. 186
8. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Норден А.П. Экспериментальное исследование уровня развития рефлексивного компонента спортивной культуры личности в процессе формирования ценностно-смысловых ориентаций студентов к самостоятельной организации спортивного стиля жизни // Современные проблемы науки и образования. - 2016. - № 5. - С. 253
9. Бозаджийева В.Л. К вопросу о психологической готовности к профессиональной деятельности// Международный журнал экспериментального образования. 2010. №7. С..98-99

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.